

XITOIY TILINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA ASOSLANGAN INNOVATSION YONDASHUVLAR

Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: barsa1954@yandex.ru

Lyu Shuy Mei

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: 172983547@qq.com

Annotatsiya. Maqolada bakalavriat ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga xitoy tilini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlar, ularni o'quv jarayonida qo'llash yo'nalishlari tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishlar talabalarning motivatsiyasini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga turli o'quv va kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida interfaol rejimni ta'minlash, topshiriqlarni bajarish natijalarini samarali monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirilishiga olib kelishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: xitoy tilini o'qitish, innovatsion yondashuv, o'qitishda innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, o'qitishda onlayn xizmatlar.

So'nggi paytlarda jahonda xitoy tilini o'qitishga va o'qitish metodikasi muammolarini nazariy jihatdan tushunishga bo'lgan qiziqishlar tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Shubhasiz, bu o'rganish eng qiyin tillardan biridir. XXI asr inson hayotining deyarli barcha sohalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot infratuzilmasiga bog'liq bo'lgan raqamli texnologiyalar asri, raqamli davr deb nomlanmoqda. Ushbu holat ta'lim sohasiga ham taalluqli. Yangi hayotiy voqeliklar raqamli texnologiyalardan foydalanishga innovatsion yondashuvlar asosida o'qitishning mazmuni va metodlarini modernizatsiya qilish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimida boshqaruv va ta'lim jarayonlarini sifatli amalga oshirishni ta'minlash ustuvor yo'nalishlari sifatida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, ushbu hujjatda ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish masalalari belgilangan [1].

Ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiyalar va o'qituvchi rolining o'zgarishi natijasida ta'limda yangi axborot va raqamli texnologiyalar vositalarining joriy etilishi bilan bog'liq holatlar xitoy tilini o'qitish jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

“O'qitishga innovatsion yondashuv deganda o'qitishning ma'lum bir usuli tushuniladiki, bunda funksiyani amalga oshirishning asosiy yuklamasi o'qituvchi nazorati ostidagi o'qitish vositasi yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv bilan yetakchi rol o'quv vositalariga beriladi: o'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, o'quv vositasini boshqarish funksiyasini bajaradi.” [3, 108 b.].

Raqamli ta'lim resurslaridan faol foydalanish ta'lim mazmunini, o'qitish texnologiyasini va o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishga olib keladi, o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi, uni o'quvchilarning qobiliyatlari va tezlik bilan idrok etishlariga ko'proq moslashtiradi. Shu munosabat bilan, raqamli texnologiyalarning zamonaviy imkoniyatlarini o'rganish va xitoy tilini o'qitish jarayonida ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Ushbu muammoni hal qilish innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish haqida mulohaza yuritish imkonini beradi. Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - innovatsion faoliyatni o'rganish, yangilash va optimallashtirishga yo'naltirilgan, yangiliklarni yaratish va joriy etish natijasida hayotning turli sohalarida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradigan, moddiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan protsessual strukturalashtirilgan uslublar va metodlar to'plamidir [4].

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar turli shart-sharoitlar, jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Raqamli texnologiyalar - bu raqamli ma'lumotlar va kompyuter tizimlaridan foydalanishga asoslangan usullar, jarayonlar va vositalar to'plami. Ular elektron qurilmalar va dasturiy ta'minot yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va tahlil qilish imkonini beradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarning til o'rganishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydilar (masalan, Baydas & Goktas [5], Hockly & Dudeney [6]). Raqamli texnologiyalar til o'qituvchilariga o'z vaqtida va tegishli fikr-mulohazalarni taqdim etishga yordam beradi, ular til o'rganishning tinglash, o'qish, gapirish va yozish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradilar.

Innovatsion raqamli texnologiyalarni hisobga olgan holda ta'lim faoliyatidagi innovatsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: multimedia texnologiyalari; raqamli ta'lim texnologiyalari; mobil ilovalar; onlayn- trenajyorlar; video konferensiya.

Shunday qilib, xitoy tilini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlar deganda o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun interfaollikni, masofadan bilim olishni va mobillikni ta'minlaydigan kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, Internet resurslaridan

foydalanishni tushunamiz. Bunda darslikning imkoniyatlarini to'ldiradigan ko'plab dasturlar, mobil ilovalar, Internetdagi raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish talablarga nafaqat ma'lum bilim va fan ko'nikmalarini, balki zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha kompetensiyalarini ham shakllantirish imkonini beradi.

Xitoy tilini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning innovatsion yo'nalishlarini ko'rib chiqaylik.

Interfaol o'qitish metodlari o'quv jarayonida talabalar faoliyati nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan hamkorlikda ishlash shaklini o'z ichiga oladi, shuningdek, o'quv jarayonida ularning faolligiga ustuvorlik berishga yo'naltiriladi.

Interfaol metodlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish darsning turli bosqichlarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan maxsus interfaol mashqlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bunday mashqlarni ixtisoslashgan kompyuter dasturlari (masalan, HotPotatoes, iSpring Suite va boshqalar) yordamida yoki Internetda (masalan, LearningApps, WordWall, Kahoot, Quizizz, Classtools. va boshqa onlayn servis xizmatlaridan foydalanib) yaratish mumkin. Masalan, **Wordwall** (<https://www.wordwall.net>) ham onlayn, ham bosma o'quv materiallarini yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ta'lim platformalaridan biridir. Wordwall platformasi turli xil masofaviy ta'lim va aralash ta'lim faoliyati uchun ishlatilishi mumkin. Uning sahifasida aksariyat shablonlar ham onlayn, ham bosma versiyalarda mavjud. Ushbu platformada tayyorlangan interaktiv mashqlarni Internet tarmog'iga ulangan har qanday qurilmada: kompyuter, planshet, telefon yoki interaktiv doskada bajarish mumkin.

Krossvordlar va viktorinalardan tortib flesh-kartalar, bo'sh joyni to'ldirish va mosliklarni o'rnatish kabi interaktiv mashqlar uchun turli shablonlar to'plami mavjud. Wordwall shuningdek, turli mavzular bo'yicha tayyor mashqlarning butun kutubxonasini yaratgan faol foydalanuvchilar jamoasiga ega (ular turli tillarda, xitoy tilida ham mavjud). Ulardan darhol yoki tahrirlangandan keyin talabalar bilimlarini mustahkamlashda, nazorat qilishda foydalanish mumkin [2].

Interfaol topshiriqlarning turli xil shakllari o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish va diqqatini o'rganilayotgan materiallarga qaratish imkonini beradi. Ushbu onlayn xizmatning o'ziga xos jihatlari dars davomida o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarning dolzarbligini yoritish va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish bosqichlarini, shuningdek, darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini amalga oshirish bosqichlarini tashkil etish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Lingohut onlayn servis xizmati (<https://www.lingohut.com/uz/l61/xitoy-tilini-o%CA%BBriganing>) - global gumanitar tilni o'rganish loyihasi. Xizmatda xitoy tilini mustaqil o'rganish uchun 125 ta bepul darslar taklif etiladi. O'rganilgan dars materiallarini mustahkamlashga doir mashqlar orqali zarur bilim va ko'nikmalar shakllantirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Har bir dars

uchun tizimlashtirilgan lugʻatdan foydalanib soʻzlarning toʻgʻri yozilishi va talaffuzini takrorlab, eslab qolish mumkin.

Duolingo (<https://ru.duolingo.com/>). Ushbu xizmat nafaqat turli mavzularda tayyor mashqlardan iborat boy kutubxonaga ega, balki tayyor shablonlar yordamida oʻqituvchilarga oʻz vazifalarini yaratish imkonini ham beradi. Ushbu xizmatdan foydalanib, turli xil mashqlarni interfaol rejimda (orfografiya, otlar, feʼllar, ravishlar, kelishiklar, olmoshlar va boshqa mavzular boʻyicha) bajarish va yangi mavzuni oʻrganishga oid videodarslarni shablonlar asosida yaratish mumkin.

Xitoy tili akademiyasi (Академия китайского языка - <https://chinese-msk.ru/>) - Xitoy madaniyati, tarixi va anʼanalarining noyob olamiga shoʻngʻish imkonini beradigan original video kurslarni taqdim etadi.

Shunday qilib, oʻquv jarayonida interfaol mashqlarni yaratish uchun onlayn servis xizmatlardan foydalanish oʻquvchilarning shaxsiy fazilatlari va ehtiyojlariga muvofiq oʻquv jarayonini individual ravishda tashkil etish; oʻquv faoliyatining turli usullarini hisobga olgan holda oʻquv-didaktik materiallarini yaratish va ulardan foydalanishni tashkil etish; vizual idrokni kuchaytirish va oʻquv materiallarini oson oʻzlashtirish; oʻquvchilarning oʻqish-bilish faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

Xitoy tilini oʻqitishda mobil qurilmalarda oʻrnatilgan mobil ilovalar oʻqituvchi va talabalarning haqiqiy yordamchilariga aylanadi. Bunday ilovalar bilan ishlashning eng qiziqarli imkoniyatlarini ajratib oʻtamiz:

HelloChinese

(<https://www.hellochinese.cc/>)

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=ru.appkode.rulearn.en>).

Xitoy tilini oʻrganishni boshlovchilar uchun juda oddiy va samarali mobil ilova. HelloChinese ilovasida mashgʻulotlar oʻyin formatida oʻtkaziladi. Talabalar murakkab xitoycha talaffuz va ohanglarni oʻzlashtirish uchun oʻrnatilgan nutqni aniqlash funksiyasidan, shuningdek, xitoycha iyerogliflarni yozishni mashq qilish uchun ilovaning qoʻl yozuvi interfeysidan foydalanishlari mumkin. Ushbu mobil ilovadan xitoy tilini oʻqitish uchun toʻlaqonli vosita sifatida darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish mumkin.

Pleco

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.pleco.chinesesystem>)

Xitoy tilini oʻrganish uchun eng mashhur mobil ilovalardan biri. Ushbu ilova tushuntirishlar bilan lugʻat, izohli xitoycha matn, audio fayllar va boshqalar kabi turli funksiyalarni taklif etadi.

Du Chinese

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=org.sinamon.duchinese>).

Turli qiyinchilik darajasidagi matnlarni oʻqishni mashq qilish uchun ajoyib ilova. Barcha matnlar xitoy tilida soʻzlashuvchilar tomonidan oʻqib eshittiriladi. Xitoy tilini oʻrganishni boshlovchilar asosiy lugʻatga ega boʻlgan juda oddiy matnlardan boshlanadi, xitoy tilini oʻrta darajada oʻzlashtirgan foydalanuvchilar

uchun matnli hikoyalar grammatikaga ko'proq e'tibor qaratilgan holda uzunroq. Ilg'or foydalanuvchilar uchun ilova klassik xitoycha matnlarni o'z ichiga oladi,

Trainchinese

(<https://www.trainchinese.com/v2/viewApps.php?rAp=0&tcLanguage=ru>).

Xitoy tilidagi iyerogliflarni yodlash va eslab qolish ko'nikmalari rivojlantiruvchi mashhur ilovalardan biri. Ushbu ilovada foydalanuvchi lug'at va misollar bilan har bir so'zning gaplardagi namunasini topishi mumkin. Oddiy lug'atlardan asosiy farqi - bu turli xil o'rganish rejimlarida kartali topshiriqlar yaratish, shuningdek, tayyor mashqlar to'plamidan foydalanish imkonini beradi.

Har xil imlo qoidalari va grammatikaga oid bilimlarni mustahkamlash uchun onlayn-trenajyorlardan foydalanish mumkin. Misol tariqasida bugungi kunda deyarli eng ommabop bo'lgan onlayn-servis xizmatlardan biri **ChineseClass101** (<https://www.chineseclass101.com/>) bo'lib, unda xitoy tilini o'rganishga bag'ishlangan turli darajadagi darslar taklif etiladi. Bepul versiyasida xitoy tilini o'rganishni boshlovchilar uchun oddiydan murakkabgacha tamoyiliga asoslangan turli xil darslar mavjud. Oyiga 3,50\$ bilan boshlanadigan tarif rejalari bo'yicha obunalarning keng doirasi mavjud. Premium versiyada oyiga 25\$ to'lov evaziga barcha mavjud darslar va PDF formatida yuklab olinadigan materiallardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, unda Android mobil operatsion tizimi bilan ishlovchi qurilmalar uchun mobil ilova ham taqdim etiladi. Ayniqsa, yo'lda bo'lgan talabalar va eshitish qobiliyatini rivojlantirish istagidagi foydalanuvchilar uchun mos keladi. Xitoy tili bilan allaqachon tanish bo'lganlar uchun esa platforma tinglash qobiliyatini yaxshilash uchun ajoyib vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalardan innovatsion foydalanish quyidagilar uchun eng samarali hisoblanadi: interfaol rejimni turli xil o'quv-didaktik masalalarini yechishda, mashqlarni bajarishda qo'llash; talabalarining aqliy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; mashqlarni bajarish natijalarini samarali nazorat qilish va tahlil qilish; talabalarining xitoy tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4545884>.

2. <https://wordwall.net/ru-ru/community/китайский/упражнения>

3. Полунина В. И., Искусство и дети. Из опыта работы учителя [Текст]: монография В. И. Полунина - М.: «Просвещение», 1982.- 191 с.

4. <http://www.terminy.info/philosophy/philosophical-dictionary/innovacionnye-socialnye-tehnologii>

5. Baydas and Goktas, 2016. O. Baydas, Y. Goktas. Influential factors on preservice teachers' intentions to use ICT in future lessons. Computers in Human Behavior, 56 (2016), pp. 170-178.

6. Hockly and Dudeney, 2018. N. Hockly, G. Dudeney. Current and future digital trends in ELT. RELC Journal, 49 (2) (2018), pp. 164-178.